



UO‘K: 9:93 (930.24)

ORCID: 0009-0008-0845-0264

TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHI MA’MURIYATNING SOBIQ XON OILASI VAKILLARIGA MUNOSABATLARIGA DOIR

Tangirov Sherzod Abduraxmonovich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: tangirovsherzod04@gmail.com

Telefon raqam: +998 (99) 335-42-26

Annatatsiya: Ushbu ilmiy maqolada, Qo‘qon xonligi hukmdori Xudoyorxonning Rossiya imperiyasi bilan aloqalari va uning farzandlari, yaqin qarindoshlari bilan taqdiri o‘rganilgan. Xudoyorxonning Rossiya bosqinchiligiga qarshi kurashishda tutgan roli, uning vassal sifatida Rossiya imperiyasiga itoat qilishi, shuningdek, Qo‘qon xonligining tugatilishidan keyin, sobiq xonning va uning oilasining Rossiya hukumatidan olingan "nafaqa"lar muhokama qilinadi. Arxiv hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlar, Xudoyorxon va uning qarindoshlarining Rossiya imperiyasining ta'minoti va "nafaqa"lariga bo‘lgan munosabati yoritiladi. Tadqiqotda, Xudoyorxonning va uning oilasining taqdiri, Rossiya imperiyasining Turkiston hududidagi siyosiy strategiyasi bilan bog‘liq holda, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar asosida tahlil qilinadi. Bu ilmiy ish, o‘sha davrda hukmdorlar va ularning farzandlari taqdiri, shuningdek, imperiya ma’muriyatining mahalliy hukmdorlar bilan aloqalarini yanada chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Xudoyorxon, Qo‘qon xonligi, Rossiya imperiyasi, Turkiston general-gubernatorligi, Xudoyorxonning kelini Xoniyabibi, nafaqa, Samarqand uyezdi, arxiv hujjatlari, xonzodalar, Toshkent, Farg‘ona viloyati, munosabatlar, Xudoyorxon avlodlari, tarixiy manbalar, General-gubernator fon Kaufman.

ТУРКЕСТАНСКОЕ КОЛОНИАЛЬНОЕ АДМИНИСТРАЦИЯ И ЕЁ ОТНОШЕНИЕ К БЫВШИМ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМ ХАНСКОЙ ДИНАСТИИ

Аннотация: В данной научной статье исследуются отношения хана Худойорхона из Хивинского ханства с Российской империей, а также судьбы его детей и ближайших родственников. Рассматривается роль Худойорхона в борьбе с российским вторжением, его подданство Российской империи как вассала, а также обсуждается вопрос о "пенсиях", которые были предоставлены бывшему хану и его семье после ликвидации

Хивинского ханства. В архивных документах представлены сведения о поставках Российской империи для Худойорхона и его родственников, а также их отношении к получению "пенсий". В исследовании анализируется судьба Худойорхона и его семьи в контексте политической стратегии Российской империи в Туркестане, опираясь на исторические документы, обладающие значительным историческим значением. Это научное исследование служит углубленному изучению судьбы правителей того времени и их детей, а также отношений между местными правителями и имперской администрацией.

Ключевые слова: Худаярхан, Хивинское ханство, Российская империя, Туркестанский генерал-губернатор, невестка Худойорхона Хониябиби, пенсия, Самаркандинский уезд, архивные документы, хоны, Ташкент, Ферганская область, отношения, потомки Худойорхона, исторические источники, генерал-губернатор фон Кауфман.

THE COLONIAL ADMINISTRATION OF TURKESTAN AND ITS RELATIONS WITH THE FORMER REPRESENTATIVES OF THE KHAN DYNASTY

Annotation: This academic article explores the relationships of Khudoyorkhan, the ruler of the Kokand Khanate, with the Russian Empire, as well as the fate of his children and close relatives. The role of Khudoyorkhan in the resistance against Russian imperialism, his submission to the Russian Empire as a vassal, and the “pensions” received by the former khan and his family from the Russian government after the dissolution of the Kokand Khanate are discussed. The information provided in archival documents sheds light on Khudoyorkhan’s and his relatives’ relations with the Russian Empire’s provisions and their attitude toward these “pensions.” The research analyzes the fate of Khudoyorkhan and his family in the context of the Russian Empire’s political strategy in the Turkestan region, based on historically significant documents. This scientific work contributes to a deeper understanding of the fate of rulers and their descendants in that period, as well as the relations between imperial administration and local rulers.

Keywords: Khudoyorkhan, Kokand Khanate, Russian Empire, Turkestan Governor-Generalship, Khudoyorkhan's daughter-in-law Khoniyabibi, pension, Samarkand district, archival documents, khans, Tashkent, Fergana province, relations, descendants of Khudoyorkhan, historical sources, General-Governor von Kaufman.

KIRISH.

Arxiv hujjatlarida tarixiy asarlarga nisbatan batafsil ma'lumot berilmasada, ulardagi qisqa axborotlar ma'lum bir masalalarni aniqlashi bilan muhim ahamiyatga ega. Masalan, O‘zbekiston Milliy Arxivida saqlanayotgan 5-jam’garma – Zarafshon okrugi boshlig‘iga oid

ish yuritish hujjati nafaqat Samarqand viloyati, balki Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda ham qimmatlidir.

Qo‘qon xoni Xudoyorxonning hukmronlik yillari ham, shuningdek keyingi hayoti, balki unga yaqin qarindosh bo‘lgan shaxslarning hayotlari ham juda chigal kechgan. Ma’lumki, Qo‘qon xonligidek, yirik davlatni boshqargan Xudoyorxon keyinchalik Rossiya imperiyasining Turkistonidagi bosqinchiliga boshchilik qilgan Turkiston general-gubernatori fon Kaufman huzuriga bosh egib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Umuman, Xudoyorxonning hayoti va nasl-nasabi haqidagi ma’lumotlar «Jahonnomma-i Xudoyorxon», «Xulosat ul-ahvol», «Ansob-av as-salotin», «Ajab as-salotin», «Tasnifi g‘arib», «Tarixi jahonnomoi» kabi kitoblarida va qo‘lyozmalarida[1, 127], Is’hoqxon To‘ra Ibratning “Tarixi Farg‘ona”, Mirzo Olim Mahmud Xojining “Tarixi Turkiston” kabi kitoblari orqali esa Qo‘qon xonligida Xudoyorxon hukmronlik yillaridagi murakkab voqealar rivoji to‘g‘risida ma’lumotlarni olish mumkin.

Xudoyorxon 1842-1845 yillarda Qo‘qon xonligida hukmronlik qilgan Sheralixonning besh o‘g‘lidan biri edi.[2, 118] U Qo‘qon xonligi taxtida uch marta 1843-1858, 1862-1863, 1865-1875 yillarda o‘tirib, Qo‘qon xonligi hukmdori bo‘lganligi[3] tarixdan ma’lum. Xudoyorxon 1865-yilning yozida Buxoro amiri qo‘shinlari yordamida so‘ngi marta Qo‘qon xonligi taxtiga o‘tiradi va keyinchalik Buxoro amiriga itoat etmay qo‘yadi.

Ma’lumki, Rossiya imperiyasi qo‘shinlari 1864-yilda Turkiston va Chimkentni bosib olgan. 1865-yil bahorida ular Toshkentga yaqinlashib, Niyozbek qal’asini egallaydi. Uzoq qamaldan so‘ng 17-iyunda Toshkent egallanadi. Toshkentdagi mag‘lubiyat oqibatida Xudoyorxонни Rossiya imperiyasi bilan yaqinlashish yo‘lini tutishga majbur bo‘lgan edi.

Xudoyorxon 1867-yil yanvar oyida Rossiya imperiyasi bilan savdo bitimini, 1868-yil 13-fevralda Qo‘qon va Rossiya sulk shartnomasini imzolaydi. Xudoyorxon 1868 – 1873-yillar oralig‘ida Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarini yaxshilash maqsadida Toshkentga ko‘plab sovg‘a-salomlar yuboradi. Shuningdek, Rossiya savdogarları uchun xonlik shaharlarida qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.[4, 34] Oqibatda, Qo‘qon xonligi amalda Rossiya imperiyasining vassaliga aylanib qoladi. 1873-yilda Qo‘qon xonligiga tashrif buyurgan amerikalik dipolomat va sayyo Yu.Skayler bu vaqtida Rossiya imperiyasining o‘z qo‘shinlariga Qo‘qon xonligi hududida o‘tkazayotgan ta’sir doirasini kengaytirayotganining guvoh bo‘lganini qayd etgan edi.[5, 270]

Qo‘qon xonligida hukm surgan nisbiy osoyishtalik 1873-yilgacha davom etgan va 1873-yilda Mulla Is’hoqxon Hasanboy o‘g‘li yetakchiligidagi xalq qo‘zg‘oloni boshlanadi. Uni qirg‘izlar Po‘latxon nomi bilan xon ko‘tarib, Xudoyorxonga qarshi chiqadilar.[4, 35] Shu tariqa Xudoyorxонни taxtni tashlab, rus bosqinchilaridan panoh so‘rab borishga majbur bo‘lgan edi.

Sh.Yusupovning ma’lumot berishicha, “... soxta Po‘latxon maydonga chiqadi, atrofiga dashtiy jangari qirgiz va qipchoqlardan askar to‘plab, Xudoyorxonning eng yirik amaldorlaridan Iso avliyo, Abdurahmon oftobachi kabilarnigina emas, balki xonning inisi

Marg‘ilon hokimi Sulton Murodbek, o‘gillari Nasriddinbek va Muhammad Aminbeklarni ham o‘z tomoniga og‘dirib oladi. Xonning ishongan tog‘lari soxta Po‘latxon amrini vojib ko‘rib, o‘z valine‘matlaridan yuz o‘girganliklari yurtda misli ko‘rilmagan sarosima vujudga keltiradi. Xonning xos odamlari o‘zлari boshqarib turgan quroq-aslaha va askarlarni, hukmlari ostida bo‘lgan shahar va qishloqlarni soxta Po‘latxon tasarrufiga topshiradilar. Har tomonlama yakkalanib, qattiq iskanjaga olingan Xudoyorxon 1875-yil 24-iyul kuni taxtni tashlab Qo‘qondan Xo‘jandga qochishga majbur bo‘ladi. Bir necha yil avval o‘rislar tomonidan behayolarcha bosib olingan Xo‘jandda xon o‘z ichidan chiqqan raqiblardan jon saqlashni, shaharda Turkiston general-gubernatori bilan aloqa o‘rnatib, ilgari ko‘p marta va‘da qilingan harbiy yordamni olib, Qo‘qon taxtini qayta egallashni rejalashtirgan”.[6, 11]

Xudoyorxon tez orada Toshkentga fon Kaufman huzuriga chaqiriladi. Kaufman esa allaqachon Xudoyorxon qismatini hal qilib bo‘lgan edi. Xonning Qo‘qonga qaytib borishi mumkin emasligini, shuning uchun Rossiyada qolib davlatdan nafaqa olib, qolgan umrini shodxurram o‘tkazishini unga maslahat beradi.[6,12]

Sobiq xonning Toshkentda yashashi rus istilochilari uchun xavfli edi. Xudoyorxonning bir paytlar o‘z qo‘l ostida bo‘lgan Toshkent va uning atrofidagi muzofotlarda obro‘sni baland, istalgan paytda uning birgina ishorasi bilan xalq ruslarga qarshi ko‘tarilishi mumkin edi. Shu sababli fon Kaufman Xudoyorxonga Sankt-Peterburgda imperator u bilan ko‘rishmoqchi ekanini aytib, 1875-yilda uni yo‘lga chiqarib yuboradi. Fon Kaufman xonni safarga yo‘llagach, Orenburg general-gubernatoriga uni to‘xtatib qolish va Qo‘qon xonligi zabit etilguncha uzoq muddat uy qamog‘ida saqlash haqida yozib yuboradi. 1877-yilda Xudoyorxon Orenburgdan qochadi va Arabistonga borib haj amallarini bajaradi. 1879-yilda ortga qaytishda, Afg‘onistonning Mozori Sharif shahri yaqinida vafot etadi va shu yerga dafn qilinadi.[7]

1876-yil boshlarida general M.D.Skobelev fon Kaufmanning topshirig‘i bilan Qo‘qon xonligini butunlay bosib olishga kirishadi. Shu tariqa, 1876-yil 19-fevralda 150 yildan ko‘proq hukm surgan Qo‘qon xonligi tugatilib, uning o‘rniga Turkiston general-gubernatorligining Farg‘ona viloyati tashkil etiladi.[2, 122]

Y.Qosimovga ko‘ra, Xudoyorxonning to‘rt o‘g‘il va ikki qizi bo‘lganligi,[1, 127] Xudoyorxon avlodidan bo‘lgan, uning o‘g‘li Sayyid Umarbekning nabirasi Sh.Umarov o‘zining «Xudoyorxon avlodlari tarixi» kitobida yozishicha Xudoyorxonning Nasriddinbek, Muhammadaminbek, Sayyid Umarbek, Ibn Yaminbek, O‘rmonbek (Nasrullohbek), Fansurullohbek ismli o‘g‘illari hamda Xonposhshoxon, Shahzodaxon, To‘raposhsho, Mohzodaxon, Ozodaxon ismli qizlari bo‘lgan.[8, 476]

Qo‘qon xonligi tugatilishi, shuningdek Xudoyorxonning Rossiya imperiyasi ma‘muriyati qo‘l ostida yashagan yillari, keyingi davrlarda uning barcha farzandlari va yaqin qarindoshlari taqdiri bevosita imperiya ma‘muriyati bilan u yoki bu tomondan bog‘liq bo‘lganligi turli tadqiqotlarida, xususan «Xudoyorxon avlodlari tarixi» risolasida bayon qilingan. Masalan, ushbu asarda Qo‘qon xonligi tugatilganidan so‘ng Toshkentga kelgan Sayyid Muhammad Nasriddinxonga dastlab yiliga 3 ming so‘m nafaqa tayinlangani, keyin Vladimir shahriga surgun

qilingani, bu yerga kelgan Nasriddinxon va ukasi Sayyidbeklarni kutib olgan Vladimir viloyatining general-gubernatori ularga yog‘och uy, maxsus xizmatchi, uning va oilasining “bexavotirligini ta’minlash” maqsadida ikkita qurollangan harbiy xizmatchi ajratgani haqida malumot berilgan bo‘lsa,[8, 485] boshqa tadqiqotlarda Nasriddinbek ruslarga xizmat qilgani, keyinchalik u Peterburgga ketib, u yerda rus harbiy general shtabida o‘qigan va o‘sha yerda harbiy san’atdan dars bergenigi aytildi.[1, 127]

Sh.Umarov “*Qo‘qonda qolgan xonzodalar Sayyid Muhammadaminbek, mening bobom Sayyid Umarbek, Ibn Yaminbeklar va xon Xudoyorxonning ukasi Sulton Murodbekning o‘g‘illari Akbaralibek, Sayyid Mavlonbeklar Qo‘qon shahridan chiqarilib, Toshkent shahriga jo‘natiladi. Xonzodalar Toshkentga kelib Niyozbek qo‘rg‘oniga joylashadilar. Rus hukumati Sayyid Muhammadaminbekka yiliga 500 so‘m va onalari Poshsha Bonuoyimga 300 so‘m nafaqa tayin qiladi.*” [8, 563] - deb ma’lumot beradi. Xudoyorxonning yana bir o‘g‘li O‘rmonbek dastlab Xudoyorxon bilan birga Orenburgga ketganligi, otasining vafotiga yaqin (1883-yil) Toshkentga kelganligi ham Sh.Umarov qaydlarida aytib o‘tilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Xudoyorxon, uning farzandlari va yaqinlari taqdiri Rossiya imperiyasi ma’murlari bilan bevosita aloqadorligi bir necha nuqtai-nazarlarni keltirib chiqaradi. Xususan, xonning farzandlari va yaqinlari taqdiri bevosita Rossiya imperiyasi ma’murlari nazoratida bo‘lishi imperiya manfaatlari uchun juda muhim bo‘lganligi, shuning uchun ham “ta’minot” uchun muayyan nafaqa ko‘rinishidagi mablag‘larning yoki boshpananing berilishi “doimiy nazorat” uchun qulay uslub bo‘lgan. Boshqa nuqtai-nazarga ko‘ra Xudoyorxonning o‘zi farzandlari va yaqinlariga qandaydir yordam yo imtiyoz berilishni fon Kaufmandan so‘ragan bo‘lsa kerak.

Xudoyorxonning yaqin qarindoshlari keyingi taqdiri asosan imperiya ma’muriyatining ularga nisbatan munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan va ularning taqdiri turlicha kechgan. Shulardan biri Xoniyabibi bo‘lib, u Xudoyorxonning akasi So‘fibekning bevasi ekanligi arxiv manbalarida qayd qilingan.[11] Samarqand uyezdi boshlig‘ining Xoniyabibi bilan munosabati misolidagi Rossiya imperiyasining mahalliy aholiga bo‘lgan munosabatini yoritishdaham muhim ahamiyatga ega.

So‘fibek Xudoyorxonning akasi bo‘lib, uning farmoni bilan 1852-yili Andijon shahriga hokim etib tayinlangan edi. 1858-yilgi taxt uchun kurashlarda So‘fibek ukasi Mallaxon tomonga o‘tib ketadi va Xudoyorxon tor-mor etiladi. Mag‘lubiyatga uchragan Xudoyorxon ukasi Sulton Murodbek bilan Xo‘jandga, keyin Buxoroga o‘tib ketadi. O‘sha yili Mallaxon ukasi So‘fibek bilan Qo‘qonga kirib, xonlik taxtiga o‘tiradi. 1859-yilning boshida So‘fibek to‘satdan vafot etadi. Buxoro amirligi qo‘llovi bilan 1873-yilgi taxt uchun kurashlarda Qo‘qon xonligi taxtiga davogarlik qilgan Nazirxon Xudoyorxon taqibidan qochib oilasi bilan Toshkenga rus hukumati ixtiyoriga o‘tib ketadi. Rus hukumati Nazirxon va oilasiga nafaqa tayinlaydi va Obuxov qo‘rg‘onidan uy-joy beradi.[8, 663]

Toshkentda (1876-yil) yashayotgan Xudoyorxon va Sulton Murodbekni oila a’zolariga So‘fibekning o‘g‘li Nazirxon g‘amxo‘rlik qilib, ularning holdan xabar olib turadi.[8, 598]

U keyinchalik Nasriddinxon va Xudoyorxonning boshqa farzandlariga uzoq yillar homiylik qilib, ularning tarbiya va ulg‘ayishlarida vafotiga qadar katta hissa qo‘sghan.[8, 662]

Bu yerda asosiy masala imperiya ma’muriyatining Xudoyorxon, uning, farzandlari va yaqinlariga qo‘llagan turli ko‘rinishdagi “ta’minoti” qachongacha davom etganligigda. Buni turli manbalarda keltirilgan qaydlarda shuningdek quyida ilk bor ilmiy muomalaga kiritilayotgan arxiv hujjatlaridan ham bilish mumkin.

1885-yil 16-yanvarda Turkiston general-gubernatori devonxonasidan Zarafshon okrugi boshlig‘iga jo‘natilgan 365-sonli xatga ko‘ra So‘fibekning bevasi, Shodmonbekning qizi Samarqand uyezd fuqarosi Xoniyabibi o‘lka boshlig‘iga Turkiston general-gubernatori fon Koufman davrida har oy 100 rubldan nafaqa olib turgan, 1882-yildan keyin esa noma‘lum sabablarga ko‘ra, nafaqa puli to‘lanmay qo‘rganini yozgan. Xoniyabibi 1884-yili kichik o‘g‘lining vafotidan so‘ng o‘zining qizi va o‘g‘lining bevasi uning yosh bolalari bilan yashab kelayotgani, oilaning yashashi uchun ta’minoti yo‘qligi, katta o‘g‘lining yordamidan umidi yo‘q, chunki u 30 rubl nafaqa olishini aytib, general-gubernatoridan o‘ziga belgilangan nafaqani tiklashni so‘rab murojaat qilgan.[10]

Turkiston general-gubernatorligi devonxonasida mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, murojaatchi Xudoyorxonning qarindoshi, Nazirxonning onasi sifatida Toshkentga Buxorodan 1875-yilda kelgan va o‘sha vaqtda Nazirxonning oila a’zolari ro‘yxatida bo‘lgan. Haqiqatdan ham Nazirxon va uning oilasiga Farg‘ona viloyati daromadlaridan 1200 rubl nafaqa berilgan. 1881-yil Farg‘ona viloyati daromadlarining davlat g‘aznachiligi umumiy resurslariga o‘tishi bilan general-gubernatorlik tarkibiy qismlarining boshliqlari tomonidan o‘lka boshlig‘iga mahalliy aholi haqida ma’lumotlar taqdim qilingan. O‘sha vaqtda ularga (Xudoyorxon va uning yaqin qarindoshlariga – *Sh.T.*) nafaqa berishni davom ettirish kerakligi aytilgan.[11] Lekin bunday shaxslar ro‘yxatida murojaatchi (Xoniyabibi – *Sh.T.*) keltirilmaganligi qayd etilgan. Uning o‘g‘li Nazirxon esa (o‘sha vaqtda xotini va bolalalari bilan Toshkentda istiqomat qilgan – *Sh.T.*) Sirdaryo viloyati ma’muriyatiga nafaqa olishga muhtoj oilalar ro‘yxatiga kiritilgan. U va uning oilasiga hamda shunga o‘xshash 27 oila qatori imperatorning ruxsati bilan yiliga 360 rubl nafaqa to‘lab borilgan.[12] Sh.Umarovning ham qayd qilishicha ular Sirdaryo harbiy gubenatori ixtiyoriga topshirilgan bo‘lgan.[8, 676]

Turkiston general-gubernatori nomidan 1885-yil 22-yanvarda Zarafshon okrugi boshlig‘iga jo‘natilgan xatda Samarqand uyezdida yashayotgan Xudoyorxonning ukasi So‘fibekning bevasi Xoniyabibiga nafaqa to‘linishini tiklash uchun imperatorga so‘rov jo‘natilishi maqsadga muvofiq emas deb topilganini yetkazishini so‘ralgan.[13]

Samarqand uyezdi boshlig‘ining 1885-yil 8-fevralda Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasiga jo‘natgan 636-sonli xatida fuqaro Xoniyabibi 1885-yil 6-fevraldan buyon Samarqand uyedida yashamasligini ma’lum qilingan.[14] Zarafshon okrugu boshlig‘i 1885-yil 12-fevraldagi 683-sonli xati bilan Turkiston general-gubernatoriga bu haqda ma’lum qiladi.[15] Aftidan, Xudoyorxonning kelini Xoniyabibi ehtimol Samarqand hududidan chiqarib

yuborilgan, yoki qolgan hayoti turmush kechirish uchun turli hududlarda sarson sargardonlikda o‘tgan.

Hujjatlardan ma’lum bo‘lishicha Xudoyorxonning yaqinlari olib turgan nafaqa Qo‘qon xonligi uzil-kesil Rossiya imperiyasiga qo‘sib yuborilganidan keyin qayta ko‘rib chiqilgan deyish mumkin.

Aytish mumkinki, ehtimol Rossiya imperiyasi ma’murlarining o‘lkada yerlilar va turli va’dalar bilan o‘z hududida vaqtincha boshpana bergen qochqin hukmdorlar va ularning yaqinlariga bunday munosabati odatiy holga aylangan munosabatlardan biri bo‘lgan. Tarixdan ma’lumki, Afg‘onistonda 1869-yilda amakisi amir Sheralixon bilan hokimiyat uchun kurashda mag‘lubiyatga uchragan Abdurahmonxon 1870-1879-yillarda Samarqand va Toshkent shaharlari istiqomat qilgan edi.[9, 141]

Yu.Skayler tomonidan keltilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Rossiya hukumati 1870-yilda Toshkentga kelgan Abdurahmonxonga yiliga 25 ming rubl nafaqat belgilab, Samarqandda yashashiga izn bergen. Samarqandda Yu.Skayler bilan ko‘rishgan Abdurahmonxon “*Birda Toshkentga kelganida general-gubernatorning izvoshi unga berilganini, ikkinchi tashrifida esa odatdagi ot-ulovdan foydalangani, uchinchi kelganida esa esa yayov qolganini alam bilan aytib bergen edi*”[5, 204] - deb o‘z estaligida qayd qiladi.

XULOSA.

Rossiya imperiyasi ma’murlari tomonidan Xudoyorxon va uning qarindoshlariga iltifot sifatida u yoki bu ko‘rinishda berilgan “ta’midot” va “nafaqa”lar uzoq davom etmagan. Aftidan Qo‘qon xonligi Rossiya imperiyasiga qo‘sib yuborilganidan keyin bu kabi masalalar ancha qisqartirilgan. 1882-yil K.P. fon Kaufmanning vafotidan keyin bu kabi “ta’midot”larning to‘xtatilishi tezlashgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, Rossiya imperiyasi ma’murlarining Xudoyorxon va uning qarindoshlariga ko‘rsatgan munosabatini o‘rganishda Zarafshon okrugi (Samarqand uyezdi) ish yuritish hujjatlari ham muhim manbaviy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қосимов Й. Кўқон хонлиги тарихи очерклари. Наманган. 1994 йил.
2. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2019.
3. Исҳоқхон Тўра Ибрат Тарихи Фарғона. Тошкент. «Маънавият». 2005.
4. Мирзо Олим Махмуд Ҳожи. Тарихи Туркистон. Тошкент. Янги аср авлоди. 2009.
5. Скайлер Ю. “Туркистон”, Тошкент. “Ўзбекистон”. 2019.
6. Yusupov Sh. Xudoyorxon va Furqat. Toshket. Sharq. 1995.
7. Yo‘ldosh G‘. Xudoyorxonning chigal taqdiri: Qo‘qonning sobiq xoni nega Orenburgga surgun qilingan edi? <https://kun.uz/29532670?q=%2F29532670> /// Qarang: Sh.Yusupov. Xudoyorxon va Furqat. Toshket. Sharq. 1995-yil. 13-23-betlar
8. Умаров Ш. Худоёрхон авлодлари. Тошкент. Turon zamin avlodlari. 2014-йил

9. Mannonov A., Abdullayev N., Rashidov R. Afg’oniston tarixi. “Barkamol fay media”. Toshkent. 2018-yil.

10. O’z MA, I-5-jam’garma, 1-ro’yxat, 1640-yi’g’ma jild, 1-varaq
11. O’z MA, I-5-jam’garma, 1-ro’yxat, 1640-yi’g’ma jild, 2-varaq
12. O’z MA, I-5-jam’garma, 1-ro’yxat, 1640-yi’g’ma jild, 3-varaq
13. O’z MA, I-5-jam’garma, 1-ro’yxat, 1640-yi’g’ma jild, 4-varaq
14. O’z MA, I-5-jam’garma, 1-ro’yxat, 1640-yi’g’ma jild, 5-varaq
15. O’z MA, I-5-jam’garma, 1-ro’yxat, 1640-yi’g’ma jild, 5-varaq orqa tomoni